

**Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi xodimlarining  
ma’naviy indeksini oshirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni yanada keng targ‘ib  
qilish bo‘yicha “BIRGA KITOB MUTOLAA QILAMIZ” tanlovingning**

**N I Z O M I**

**I. Umumiy qoidalar**

**1.** Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (keyingi o‘rinlarda Vazirlik deb yuritiladi) xodimlari o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ommalashtirish maqsadida tanlovnin (keyingi o‘rinlarda Tanlov deb yuritiladi) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**2.** Tanlovnin tashkil etish va o‘tkazish ixtiyoriy, oshkorralik, xolislik, tenglik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

**3.** Tanlov Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri tomonidan tasdiqlangan “Vazirlik tizimda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha 2022-yil uchun “Yo‘l xaritasi””ga muvofiq amalga oshiriladi.

**4.** Vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar tanlovda ishtiroy etish huquqiga ega.

**5.** Tanlov “**Birga kitob mutolaa qilamiz**” shiori ostida tashkil etiladi.

**6.** Tanlovnin tashkil etish va o‘tkazish Vazirlik Ma’naviyat va ma’rifat kengashi (keyingi o‘rinlarda Kengash deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi. Kengash tanlov Nizomiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish vakolatiga ega.

**II. Tanlovnin maqsadi**

**7.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 14-dekabrdagi 781-sun Qaroriga binoan tizim xodimlari o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va ommalashtirish hamda ma’rifatli jamiyat sari ildam qadam tashlashdan iborat.

**III. Tanlovnin o‘tkazish tartibi va shartlari**

**8.** “**Birga kitob mutolaa qilamiz**” tanlovinin o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita va hakamlar hay’ati tuziladi.

**9.** Vazirlikning hududiy bosh boshqarmalari, tizim tashkilotlari tanlovga 3 nafardan iborat jamoa (*har bir kitob bo‘yicha alohida jami 4 ta’ni* shakllantirib, (ishtiroychilarni quyi tizimlardan shakllantirish mumkin) ishtiroykini ta’minlaydi).

**10.** Tanlov 2022-yil 13-dekabr kuni ZOOM platformasi orqali onlayn o‘tkaziladi.

**11.** Har bir jamoa tanlovda bitta kompyuterdan foydalangan holda ya’ni 3 nafar ishtiroychi bitta kompyuterda ishtiroy etadi. Bunda, veb-kameralar

yoqilgan, ovoz sozlamalari soz holatda bo‘lishi shart. Ushbu talablarga rioya yetmagan jamoa tanlovdan chetlashtiriladi.

**12.** Tanlovda tashkiliy qo‘mita va hakamlar hay’ati tomonidan oldindan tasdiqlangan kitoblar asosida tayyorlangan 15 ta savol (*har bir kitob bo‘yicha alohida*) o‘ynaladi.

**13.** Ishtirokchi jamoalarga 15 ta savol yuboriladi (*ZOOM platformasi orqali*). Har bir savol uchun 1 daqiqa vaqt ajratiladi. Jamoalar barcha savollarga javoblarni belgilab, jami 17 daqiqa ichida yuborishi shart.

**14.** Vaqtdan oshgan jamoalarning javoblari inobatga olinmaydi.

**15.** Jamoalar har bir savolga berilgan to‘g‘ri javob uchun hakamlar hay’ati tomonidan 1 ball (noto‘g‘ri javobga 0 ball beriladi) bilan baholanadi. Tanlov yakunida ishtirokchi jamoalar to‘plagan ballari e’lon qilinadi.

**16.** Ballar teng bo‘lib qolgan taqdirda qo‘sishimcha savollar beriladi.

**17.** Eng yuqori ball to‘plagan jamoa tanloving g‘olibini hisoblanadi.

**18.** Hakamlar hay’ati qarori faqat tashkiliy qo‘mita tomonidan muhokama etiladi.

**19.** Ishtirokchi jamoalar savollar muhokamasi vaqtida raqib jamoalarga xalaqit bermagan holda muhokama qilishi talab etiladi.

#### **IV.G‘oliblarni taqdirlash**

**20.** Tanlov g‘oliblari Kengash raisi yoki rais o‘rribosari tomonidan taqdirlanadi.

**21.** Har bir kitob bo‘yicha tanlov g‘oliblariga umumiy 15,0 mln (o‘n besh million) so‘m pul mablag‘i ajratiladi.

#### **V.Yakuniy qoidalar**

**22.** Tanlovni tayyorlash, o‘tkazish va g‘oliblarni taqdirlash bilan bog‘liq xarajatlar vazirlikning budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

**23.** Tanlovni tashkil etish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.